

LINGVOKULTUROLOGIYADA ZONIMLARNING O'RGANILISHI

Choriev Jahongir Asadullaevich

Oriental Universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD), dotsent Gavhar Rahmatova

Annotatsiya. *Mazkur maqolada lingvokulturologiyada zoonimlarning o'rganilishi, ularning til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi muhim lisoniy birlik sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Zoonimlar xalqning dunyoqarashi, milliy mentaliteti, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi vositalardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda turli tillardagi zoonimlarning semantik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari yoritilib, ularning maqol, matal, frazeologik birliklar hamda badiiy matnlardagi qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, zoonimlar orqali shakllangan milliy-madaniy konseptlar va ularning kommunikativ vazifalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari zoonimlarning til egalarining madaniy xotirasi va etnomadaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *zoonim, lingvokulturologiya, til va madaniyat, etnomadaniyat, milliy mentalitet, konsept, frazeologizm, semantika, pragmatika, madaniy kod, badiiy matn, maqol va matallar, kommunikativ vazifa, lisoniy birlik, etnolingvistika.*

Hozirgi tilshunoslikda lingvokulturologiya mustaqil yo'nalish sifatida til birliklarini "madaniy ma'no" va "milliy dunyoqarash" bilan uzviy bog'liq holda tavsiflashga qaratilgan nazariy-metodologik maydonni tashkil etdi⁵. Bu yo'nalishda til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, qadriyatlar tizimi va stereotiplarini saqlovchi madaniy kod sifatida qaraladi⁶. Shu nuqtai nazardan, leksik birliklarning semantikasidagi konnotativ (baholovchi-emotsional) qatlam, ayniqsa, milliy tajriba bilan shartlangan ma'no soyalari lingvokulturologik tahlilning markaziy obyektiga aylanadi⁷.

Lingvokulturologiyada madaniy mazmunning tilda ifodalanish mexanizmlarini yoritishda frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, barqaror birikmalar va frazeologik birliklar ko'p hollarda "madaniy pretsedent"lar, o'rnashayotgan baholash me'yorlari va ijtimoiy tafakkur modellarining tayyor shaklga kelgan ifodasi hisoblanadi⁸.³ Xususan, zoonimlar ishtirokidagi frazeologizmlar insonning xarakter tiplari, ijtimoiy maqomi yoki xulq-atvorini bag'oyat obrazli tarzda baholash uchun xizmat qilib, hayvon obrazini "madaniy etalon" sifatida faollashtiradi⁹. Natijada bir xil denotat (masalan, "tulki", "sher", "eshak" kabi) har bir til va madaniyatda turlicha stereotip va

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

⁶ Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 624 с.

⁷ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

⁸ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингво-культурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

⁹ O'sha manba. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

konnotatsiyalarni chaqirishi mumkin; bu esa zoonimli birliklarni lingvokulturologik yondashuvda qiyosiy o‘rganish zaruratini kuchaytiradi¹⁰.

Zoonimlarni lingvokulturologik tadqiq etishning muhim nazariy ustunlaridan biri – “kalit birliklar” va madaniy semantika g‘oyasidir. Ayrim leksemalar, xususan, madaniyatga xos baholash mezonlarini tashuvchi birliklar (jumladan, zoonimlar) milliy mentalitetni tushuntirishda “semantik kalit” vazifasini o‘taydi. Bunday yondashuvda, zoonim-nominatlar nafaqat hayvonni nomlaydi balki, muayyan axloqiy kategoriya (jasorat, ayyorlik, yumshoqlik, tajovuzkorlik va h.k.) bilan bog‘liq madaniy tushunchalarni ham kodlaydi. Demak, zoonimlar – xalqning qadriyatlar ierarxiyasi va ijtimoiy baholash standartlarini tilda barqarorlashtiruvchi resurs sifatida namoyon bo‘ladi¹¹.

Kognitiv tilshunoslikda zoonimlarning madaniy qiymatini ochishda konseptual metafora nazariyasi muhim tushuntiruvchi imkoniyat beradi¹². Bu nazariyaga ko‘ra, inson tajribasi ko‘p hollarda obrazli proeksiyalar orqali modellashadi; “inson – hayvon” tipidagi proeksiyalar esa jamiyatda qabul qilingan baholash mezonlarini tilda mustahkamlaydi. Masalan, muayyan zoonimning ijtimoiy semantikasi (qiyos, istiora, taqir yoki maqtov) tarixiy tajriba va madaniy ta‘lim orqali shakllanadi; shu sababli zoonimli metaforalar tillararo qiyosiy tahlilda madaniy nomoslik (semantik siljish) manbalaridan biri sifatida qaraladi¹³.

Nominatsiya va onomasiologiya nuqtai nazaridan zoonim-nominatlarning o‘rganilishi ham lingvokulturologik tahlil uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Nomlash jarayonida til birligi “nima”ni emas, “qanday” asosda nomlanganini ochish (ya’ni motivatsiya) muhim hisoblanadi¹⁴. Shu jihatdan, nominativ modellarning tasnifi, terminologik aniqligi va nomlashning funksional vazifalarini belgilash zoonim-nominatlarning til tizimidagi maqomi va chegaralarini to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi¹⁵. Zoonimlardan kelib chiqqan nomlash birliklari (laqablar, antroponimlarga qiyosiy qo‘llanishlar, toponimiyadagi zoonimli modellar va h.k.) ko‘p hollarda madaniy assotsiatsiyalarga tayanadi; demak, nominatsiya va lingvokulturologiya uzviy bog‘liq tahlil yo‘nalishlaridir¹⁶.

O‘rta asr Sharqining mashhur mutafakkirlaridan biri Abulqosim Mahmud Zamaxshariy asarlarida hayvon nomlari bilan bog‘liq leksemalar uchraydi. XI asr filologi Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida xalq og‘zaki

¹⁰ Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997.

¹¹ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с

¹² Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago; London: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

¹³ O‘sha manba. – Ch.: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

¹⁴ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Либроком, 2007. – 368 с.

¹⁵ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Наука, 1988. – 192 с.

¹⁶ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Либроком, 2007. – 368 с.

ijodiga oid 300 dan ortiq she'riy parchalar, 291 ta maqol va matal keltirilgan. Ushbu matnlar tarkibida 200 ga yaqin zoonim, jumladan, 100 ga yaqin qush nomi uchraydi¹⁷.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
2. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 624 с.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
5. O'sha manba. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
6. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997.
7. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
8. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago; London: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
9. O'sha manba. – Ch.: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
10. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Либроком, 2007. – 368 с.
11. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Наука, 1988. – 192 с.
12. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Либроком, 2007. – 368 с.
13. Абдуалиева З.У. Гипонимо-эвонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Х., 2014. – 86, 18 с.

¹⁷ Абдуалиева З.У. Гипонимо-эвонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Х., 2014. – 86, 18 с.